

**Bosh prokuratura Akademiyasi tomonidan
2021-yilda amalga oshirilgan faoliyat to'g'risida
MA'LUMOT**

Prokuratura organlari xodimlarining bilim-malakasini oshirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirish, salohiyatli kadrlar korpusini shakllantirish maqsadida Akademiya tomonidan 2021-yilda 87 ta malaka oshirish kurslari tashkil etilib, ularda 5028 nafar xodim tahsil oldi (shulardan, 1715 nafari prokuratura, 201 nafari Departament, 2 398 nafari Majburiy ijro byurosi va 714 nafari boshqa davlat organlari xodimlari).

Prokuratura organlarida rahbarlik lavozimlarini egallash uchun zaxirada turgan kadrlarni kasbiy qayta tayyorlash kursiga qabul qilish jarayonlari takomillashtirilib, eng sara xodimlarni tanlab olish imkonini beruvchi yangi uch bosqichli tanlov tizimi joriy qilindi va hozirgi kunda ushbu kurslarning ikkinchi bosqichi o'tkazilmoqda.

Kursslarni o'tkazishda tinglovchilarning zamonaviy boshqaruv va menedjmentning innovatsion shakllari va metodlarini o'zlashtirishiga hamda liderlik ko'nikmalarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratildi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz hamda YXHT, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan hamkorlikda respublikada yagona bo'lgan "Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" mutaxassisligi bo'yicha magistratura yo'nalishi ochildi, ushbu yo'nalishga 10 nafar tinglovchi qabul qilindi.

Xodimlarning ehtiyoj va qiziqishi asosida yakka tartibda malaka oshirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida, elektiv (tanlov) o'quv kurslari tashkil etilgan bo'lib, 214 nafar xodim ular orqali malaka oshirish istagini bildirib ro'yxatdan o'tgan.

Xodimlarning majburiy kurslarda malakasini oshirish bo'yicha yangi mexanizm va tegishli o'quv materiallari ishlab chiqildi (ma'lumot uchun: ushbu kursslari, xodim boshqa yo'nalishdagi lavozimga tayinlangan taqdirda, unda sohaga oid bilim va dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi).

Xodimlarning bilimlarini oshirish jarayonlarida davlat tiliga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, Akademiya tomonidan ilk marotaba prokuratura xodimlarining nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritishga oid ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan "Yuridik sohada davlat tili" mavzusidagi tanlov tashkil etildi.

Esselar tanlovi, bilimdonlik hamda she'rxonlik yo'nalishlarida tashkil etilgan uch bosqichli tanlov tumandan respublika darajasigacha tizimning barcha pog'onalari xodimlarini qamrab oldi.

Xodimlarining kasbiy rivojlanishini monitoring qilib borilishini ta'minlash maqsadida 2200 dan ortiq xodimlarning ko'nikmalari uch bosqichda diagnostikadan o'tkazildi.

Amaliyotdagi muammolardan kelib chiqib, muayyan hududlar xodimlari uchun maqsadli va aniq yo'naltirilgan 3 ta o'quv kurslari tashkil etilib, ularda 100 dan ortiq tinglovchilar ishtiroki ta'minlandi (Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari xodimlari uchun kurslar).

Departament organlariga yuklatilgan yangi vazifalardan kelib chiqib va bevosita ushbu organ so'roviga asosan "Energiya resurslari va ichimlik suvini talon-taroj qilish mexanizmlarini aniqlash va fosh etish" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi.

Shuningdek, sudsarda prokuror vakolatini ta'minlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan xodimlarning bilim-malakasini oshirish maqsadida mazkur yo'nalishda faoliyat olib borayotgan xodimlarni bosqichma-bosqich o'qitish tizimi joriy etildi.

Xususan, 2021-yil 2-yarmi davomida tuman (shahar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning yordamchilari ishtirokida "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar va ma'muriy huquqbazarliklarga oid ishlar bo'yicha sud jarayonlarida prokuror ishtiroki hamda mazkur toifadagi ishlar bo'yicha yagona sud amaliyotini shakllantirish masalalari", "Jinoyat ishlari buyicha sud muhokamasida prokuror ishtiroki", "Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida prokurorlar tomonidan sudsarda ko'rilgan fuqarolik, ma'muriy hamda iqtisodiy ishlarni o'rganish va sud hujjatlariga protest keltirish masalalarida qonuniylikni ta'minlash" mavzularida o'quv kurslari tashkil etildi.

Bundan tashqari, sudsarda prokuror vakolatini ta'minlash yo'nalishida faoliyat olib borayotgan xodimlarga ixtiyorilik asosida o'qishlari uchun elektiv kurslar tashkil etilgan.

Shuningdek, sudsarda prokuror vakolatini ta'minlash yo'nalishida faoliyat olib borayotgan xodimlar uchun onlayn shaklda vebinarlar o'tkazib kelinmoqda.

Shu kabi, mazkur yo'nalishda prokuratura organlarini metodik ta'minlash maqsadida "Jinoyat ishlarini yuqori sud instansiyalarida ko'rlishida prokuror funksiyalari va vakolatlarini takomillashtirish: qiyosiy-huquqiy tahlil" mavzusida monografiya va "Prokurorning jinoyat sud protsessidagi fikri" mavzusida o'quv-amaliy qo'llanma tayyorlandi.

Umuman olganda, joriy yilda 3 ta darslik, 1 ta to'plam hamda 18 ta o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilib, ijtimoiy va iqtisodiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati kabi yo'nalishlarning

ilk marotaba to'liq va batafsil tarzda uslubiy jihatdan qamrab olinishi ta'minlandi.

Iqtisodiy ishlar bo'yicha qabul qilingan sud qarorlarini o'rganish natijalari bo'yicha "Iqtisodiy sud ishlarini yuritishning ayrim masalalari" nomli praktikum tayyorlanib, elektron shaklda "SEDO" elektron tizimiga joylashtirildi.

Prokuratura organlari faoliyatini metodik ta'minlash, xodimlarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ham Akademiya tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Akademiya huzurida 3 ta ixtisoslik bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash mavjud bo'lib (2018 y. - 1 ta), shundan 12.00.07 - Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura va 12.00.12 - Korrupsiya muammolari (yuridik fanlar) ixtisosliklari respublikada yagona Ilmiy kengash hisoblanadi.

Akademiyada bugungi kunda 12 nafar tayanch doktorant va 90 nafar mustaqil izlanuvchi (62 nafar prokuratura xodimlari) ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirmoqda.

Professor-o'qituvchilar tomonidan 300 dan ortiq, doktorant va izlanuvchilar tomonidan esa 500 ga yaqin ilmiy maqolalar chop etildi.

Joriy yilda Akademianing 2 nafar xodimi dissertatsiya ishini himoya qildi, shuningdek 3 nafari professor, 3 nafari dotsent ilmiy unvoniga ega bo'ldi.

OAK qarori bilan 2021-yildan Akademiyaga "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirish hamda ijtimoiy rivojlanishning ilmiy asoslari va amaliy yo'nalishlari" bo'yicha maxsus imtihon, ixtisoslik va "Chet tili" fanidan malaka imtihonlari qabul qilishga ruxsat berilib, bugungi kungacha 92 ta talabgor imtihondan o'tkazilgan.

Akademiyada TDYU, Sudyalar oliy maktabi, IIV Akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, DXX Akademiyasi, Bojxona instituti, Yuristlar malakasini oshirish markazi va boshqa ta'lim muassasalarini o'zida birlashtirgan Ilmiy-tadqiqot konsorsiumi tashkil etilgan.

OAKning ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan "Bosh prokuratura Akademiyasining Axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnalining 3 ta soni nashrdan chiqarildi, shuningdek "ProAcademy" elektron jurnalida chop etilgan ilmiy maqolalar nufuzli xorijiy jurnallarda chop etiladigan ilmiy maqolalarga tenglashtirildi hamda TDYU bilan hammuassislikda "Kriminologiya va jinoiy odil sudlov" elektron jurnalini chop etish yo'lga qo'yildi.

Akademik mobililik dasturi doirasida nufuzli xorijiy ta'lim muassasalarida (AQSH, Yaponiya, Shvetsiya) 4 nafar professor-o'qituvchining stajirovkasi hamda 4 nafar tinglovchining tahsil olishi tashkillashtirildi. Bundan tashqari, Shvetsiya, Italiya va Latviyadan 1 nafardan tadqiqotchilar, Qozog'iston Respublikasidan 10 nafar doktorantning Akademiyada stajirovkasi tashkillashtirildi.

Akademiya faoliyatiga ko'plab xalqaro va xorijiy ekspertlar jalg qilingan bo'lib, aksariyati uzoq muddatli hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Birgina, 2021 yilning 10 oyi davomida 20 dan ortiq xalqaro va xorijiy ekspertlar uzoq va o'rta muddatlarga jalg qilindi.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurash yo'nali shida mashhur xalqaro ekspert M.Kroytner, "Mintaqaviy muloqot" XNTning huquq bo'yicha eksperti G.Klimenchich, ingliz tili bo'yicha mutaxassis D.Zaxarov, R.Vallenberg nomidagi Inson huquqlari instituti direktori Z.Zalanova va boshqa bir qator yetuk mutaxassislar ta'lim jarayonlarida ishtirok etdi.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi xalqaro ekspert (Germaniya), professor B.Baumannni AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) loyihalari doirasida Akademiya faoliyatiga jalg qilish ishlari olib borilmoqda.

Prokuratura organlariga jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini tizimli tahlil qilish va o'rganishda yaqindan yordam berish maqsadida har oy yakuniga ko'ra respublika bo'yicha 20 dan ortiq jinoyat turlari bo'yicha jinoyatchilik tahlili o'tkazilib, ma'lumot va slaydlardan iborat to'plam (dayjest) ishlab chiqilib, 10 dan ortiq uslubiy takliflar ilova qilingan holda hududlarga va tegishli tarkibiy tarmoqlarga taqdim etilmoqda.

Akademiyada Chilonzor va Zangiota tumanlaridagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish yuzasidan 60 nafar kriminologiya, sotsiologiya, jinoyatchilikka qarshi kurashish yo'nali shilarida ekspert va mutaxassislardan iborat Shtab tashkil etildi.

Shtab tomonidan ijtimoiy tadqiqotlar uchun fokus guruhalr faoliyati yo'lga qo'yildi hamda mingdan ortiq shaxslar orasida so'rovnomalar va testlar o'tkazilishi ta'minlandi.

Zangiota va Chilonzor tumanlarida krimogen vaziyatni barqarorlashtirish yuzasidan 45 ta banddan iborat yo'l xaritalari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

"Qizil" toifaga kiritilgan 43 ta shahar-tumanlarda kriminogen vaziyatni o'rganishga bag'ishlangan o'quv seminar mashg'ulotlari o'tkazildi.

Surxondaryo va Samarqand viloyatlari misolida giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish ahvoli hamda sodir etilishi sabablarini o'rganish yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma hamda amaliy qo'llanma tayyorlandi.

Nomusga tegish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish ahvoli hamda sodir etilishi sabablarini o'rganish yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlanib, 20 ga yaqin amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Avtohalokatlar sabablarini o'rganish orqali kelgusida ularning oldini olish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan takliflar tayyorlash tizimini yaratish bo'yicha metodik qo'llanma hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida 2020-yil davomida sodir qilingan jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish hamda ularni bartaraf qilish masalalari o'rganilib, har bir hududning kriminologik xaritalari ishlab chiqildi.

Yaponiya Adliya vazirligi bilan qo'shma loyiha doirasida har oyda maxsus o'quv seminarlari o'tkazib kelinmoqda.

Farg'ona viloyatida 840 ta kam ta'minlangan oilalarning farzandlari xatna to'ylari tashabbus qilindi.

UNODC ishtirokida Chilonzor tumanida "Shahar sharoitlarida bexatar, inklyuziv va barqaror jamiyat uchun xavfsiz boshqaruv" loyihasi amalga oshirilib, 10 nafar tashqi ekspert jalb etildi. Loyiha yakuni bo'yicha 3 tilda hisobot va 2 ta qo'llanma tayyorlandi.

Toshkent shahrining 12 ta tumanlarida uyushmagan yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan sayyor o'quv mashg'ulotlari o'tkazilib, unda 7250 nafar yoshlар ishtirok etdi.

Shuningdek, o'tgan davrda 15 ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqildi (qonun – 5, PQ/PF – 3, VMQ – 3, boshqa – 3). Xususan, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish bo'yicha Qonun loyihasi, ish topishda qiynalayotgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini ish bilan ta'minlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasi Qarori loyihasi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda moddiy meros ob'ektlarini asrash va saqlash sohasida nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan Hukumat qarori loyihasi kiritildi.

Akademiya rasmiy veb-sayti takomillashtirilib, unda interfaol xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydigan funksiyalar joriy etildi. Xususan, sayt orqali magistraturaga hujjat topshirish, Axborotnomaga onlayn maqolalarni topshirish, elektron kutubxona xizmatidan foydalanish qayta aloqa mexanizmlarini o'rnatish imkoniyati yaratildi.